
QISHDA QULUPNAY PISHDI: BIR MAVSUMDA 30 MILLION SO‘M DAROMAD

G‘iyosbek Tursunov bir qancha muddat Rossiya federasiyasida ishlab vatan qadri, oila sog‘inchini his qilganlardan. O‘z yurtiga qaytgan G‘. Tursunov “Xo‘jaariq” mahalla fuqarolar yig‘ini hokim yordamchisi Qahramon Ahmedovning tavsiyasi bilan imtiyozli kreditdan 30 million so‘m olib yashash xonadonida bo‘sh turgan 8,5 sotixli er maydonida ikkita issiqxonaga barpo etdi. Issiqxonada qishda ham qulupnay etishtirishni yo‘lga qo‘ydi.

Ikkita issiqxonaga jami 6400 tup koreyaning “MaeHyang” va Evropaning “Clery” navli qulupnay ko‘chatlari avgust oyining oxirlarida ekilgan. Noyabr oyi o‘rtalarida 3,5 sotixli issiqxonadagi koreyaning “MaeHyang” navli qulupnayi pishib etilib ilk daromadini berishni boshladi. Evropaning “Clery” navli qulupnay ko‘chatlari esa 5 sotixli issiqxonada pishib etilishi uchun alohida parvarishlanmoqda. (https://t.me/toshloq_axborot_xizmati)

—Qilgan mehnatlarimiz samarasi bugungi kungacha 30 millionga yaqin daromad oldik. Issiqxonada qulupnay yana pishib etilmoqda. Olgan daromadlarimiz hisobiga issiqxonada issiqliq tizmini tashkillab, qulupnay navlarini ko‘paytirish evaziga mo‘l hosil olib daromadimizni yanada oshiramiz,—deydi G‘. Tursunov.

2024-02-01 16:22:05